



# O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 ISS: 2 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



№	MUNDARIJA	Page
1.	<b>QISHLOQ XO'JALIGI SUG'URTASIDA AKTUAR HISOBLARNI QULLASH VA RIVOSHLANTIRISH MASALALARI</b> <i>Nurullaev Abdulaziz Sirojiddinovich</i>	5
2.	<b>SUG'URTA KOMPANIYALARI MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA XORIJ TAJRIBASI</b> <i>Nosirov Jasur Tursunpulotovich</i>	9
3.	<b>ESG TAMOYILLARI ASOSIDA SUG'URTA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH</b> <i>Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich, Yusupov Akbar Haydarovich</i>	14
4.	<b>SUG'URTA SOHASIDA INNOVATSION MARKETING VA RAQAMLI REKLAMA STRATEGIYALARINI JORIY ETISH YO'NALISHLARI</b> <i>Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich, Raxmonberganov Surojbek Uktamboy o'g'li</i>	18
5.	<b>MIJOZLAR QAMROVINI OSHIRISH UCHUN SUG'URTA KOMPANIYALARIDA TIZIMLI MARKETING STRATEGIYALARINI AMALGA OSHIRISH</b> <i>Raxmonberganov Surojbek Uktamboy o'g'li</i>	21
6.	<b>O'ZBEKISTON SUG'URTA TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINING HOLATI: MAVJUD MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI</b> <i>Xasanov Farrux Ravshanovich</i>	25
7.	<b>PENSIYA SUG'URTASINI AMALIYOTGA JORIY ETISHNING ZARURIYATI VA DOLZARBLIGI</b> <i>Yo'ldoshoval Aziza Muzaffar qizi</i>	28
8.	<b>BANK XIZMATLARINI SUG'URTALASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI</b> <i>Tog'ayniyazov Shohzodbek Ural o'g'li</i>	30
9.	<b>O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORIDA KOMPANIYALARNING MOLIYAVIY KO'RSATKICHLARI DINAMIKASI</b> <i>Iminova Nurjahon Qodirjon qizi</i>	34
10.	<b>QISHLOQ XO'JALIGIDA SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH</b> <i>Djumayev Jonibek O'rinovich</i>	38
11.	<b>СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПЕРЕСТРАХОВОЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ СТРАХОВОГО СЕКТОРА</b> <i>Муминова Ансора Улдузбек кизи</i>	42
12.	<b>СОВРЕМЕННЫЕ ДРАЙВЕРЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В СТРАХОВЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ</b> <i>Жиянова Наргиза Эсанбоевна, Зохидова Диёра Улдузбек кизи</i>	45
13.	<b>O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI SUG'URTASI BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI</b> <i>Madiyev Abbas Nosirovich</i>	50
14.	<b>QISHLOQ XO'JALIGI RISKLARINING XUSUSIYATLARI VA ULARNI ILMIY TASNIFLASH METODOLOGIYASI</b> <i>Qo'ldoshev Qamariddin Mansurovich</i>	53
15.	<b>O'ZBEKISTONDA SUG'URTA TASHKILOTLARI TO'LOV QOBILIYATINI TA'MINLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI</b> <i>Xattabov Murodulla Batirovich</i>	56
16.	<b>KORXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY BOSHQARUVNING AHAMIYATI</b> <i>Muratova Saodat Igamnazar qizi</i>	59
17.	<b>TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH MASALALARI</b> <i>E.I.Ergashev, Qarayev Anvar Botirovich</i>	63
18.	<b>O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI</b> <i>Kuldashev Jahongir Qamariddinovich</i>	67
19.	<b>BANK TIZIMI BARQARORLIGI IQTISODIY RIVOJLANISH GAROVIDIR</b> <i>Nazarov Qilich Xolmuradovich, Toyirov Yunus Alamovich</i>	71
20.	<b>MILLIY IQTISODIYOTNI KREDITLASHDA TIJORAT BANKLARINING ROLI</b> <i>Nazarov Qilich Xolmuradovich, Toyirov Yunus Alamovich</i>	73
21.	<b>A SYSTEM OF INDICATORS FOR ENSURING THE ECONOMIC SECURITY OF COMMERCIAL BANKS UNDER INCREASING SYSTEMIC RISK</b> <i>Malikova Dilrabo Muminovna</i>	76

22.	<b>IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHDA HUDUDIY MARKETINGNING FUNKSIONAL O'RNI VA AHAMIYATI</b> <i>Mukhammadieva Nodira</i>	79
23.	<b>XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA INSON RESURSLARIGA QILINGAN XARAJATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI</b> <i>Usmanova Nigina Marupovna</i>	84
24.	<b>НАЛОГОВАЯ РЕФОРМА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН КАК ФАКТОР РОСТА СПРОСА НА УСЛУГИ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА СРЕДИ МАЛОГО БИЗНЕСА</b> <i>Холбеков Расул Олимович</i>	88
25.	<b>O'ZBEKISTON TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASI: IQTISODIY TA'SIRLAR, INSON KAPITALI VA REINTEGRATSIYA MUAMMOLARI</b> <i>Ismatova Shoxsanam Abdulaziz qizi</i>	92
26.	<b>O'ZBEKISTONDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING KONTSEPTUAL ASOSLARI</b> <i>Berdibayev Fayzulla Zariybayevich</i>	95
27.	<b>ASOSIY KAPITALGA O'ZLASHTIRILGAN INVESTITSIYALAR UZOQ VAQT BARQAROR FOYDA KELISHI KAFOLATI</b> <i>Jomolov Muzaffar Mirzoxitovich</i>	98
28.	<b>SUG'URTA KAPITALIDAN INVESTITSIYA SIFATIDA FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA BAHOLASH (DEA MODELI ASOSIDA) YO'LLARI</b> <i>Kenjayev Ilhom G'iyozovich</i>	101
29.	<b>RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ORQALI INDIVIDUAL SPORTCHILARNI TAYYORLASH TIZIMI BOSHQARUVI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI TAHLILI</b> <i>Junaydullayev Mels Asliddin o'g'li</i>	105
30.	<b>TOSHKENT SHAHRIDA ANHOR KANALI BO'YLAB OSMA KABINALI JAMOAT TRANSPORT TIZIMINI YARATISH KONSEPSIYASI</b> <i>Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li, Kamolidinov Muhibillo Shokirjon o'g'li</i>	109
31.	<b>SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH QUVVATLARIDAN FOYDALANISHNI ME'YORLASHTIRISHNING USLUBIY JIHLARI</b> <i>Ergashev Abrorbek Raxmatulla o'g'li</i>	112
32.	<b>METROLOGIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-AMALIY JIHLARI</b> <i>Rakhmatillaev Nodirjon Yo'ldashvaevich</i>	114
33.	<b>AN INTEGRATED RISK-BASED MODEL FOR ASSESSING THE EXTERNAL ENVIRONMENT OF SMALL ENTERPRISES IN UZBEKISTAN: IMPLICATIONS FOR THE INSURANCE MARKET</b> <i>Djumabayeva Dilobar Asatillayevna</i>	116
34.	<b>UY-JOY NARXLARINI HISOBLASHDA HEDONIK REGRESSIYA FORMULASIDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI</b> <i>Tog'ayeva Dildora Akramovna</i>	120
35.	<b>СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ КЛАССИЧЕСКИХ И СОВРЕМЕННЫХ ПРИНЦИПОВ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ</b> <i>Ахоров Зариф Орипович</i>	123
36.	<b>RAQAMLI SOLIQ TIZIMLARINI JORIY ETISH VA ULARNING IQTISODIY TA'SIRI</b> <i>Tuychiyev Sherxon Shuxrat o'g'li, Xubbimov Sherzod Jamshidovich</i>	126
37.	<b>SOLIQQA TORTISHNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRI: EMPIRIK TAHLILLAR ASOSIDA</b> <i>Toshnazarova Lola Shuxratillayevna, Karimov Mardon Akram o'g'li</i>	129
38.	<b>TURIZMDA INNOVATSIYALARNING HAYOTIYLIK SIKLI VA ULARNING BOZORGA CHIQUISH BOSQICHLARI</b> <i>Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi</i>	133
39.	<b>RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ JOYLARIDA TURIZM XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH</b> <i>Xalimov Shaxboz Xalimovich</i>	136

## “O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC institute “Milliy ta‘lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



## METROLOGIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-AMALIY JIHLARI

Rakhmatillaev Nodirjon Yo'ldashvaevich

TDIU mustaqil tadqiqotchi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada global iqtisodiy rivojlanish sharoitida metrologik faoliyatni rivojlantirish bevosita sifat infratuzilmasini yaxshilashning muhim elementi hisoblanadi. Metrologik faoliyati tarmoq va sohalarda o'lchashlar aniqligini ta'minlash bilan bir qatorda sanoatda samaradorlik, resurs tejamkorlik va raqobatbardoshlikni ta'minlaydi. Ushbu yo'nalishda ilmiy-tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyatga ega. Shundan kelib chiqqan holda metrologik faoliyatni rivojlantirish borasida amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** metrologiya, metrologik faoliyat, mahsulot sifati, metrologik talablar, o'lchovlar, o'lchov vositalari, etalonlar.

**Abstract:** In this article, the development of metrological activities in the context of global economic development is an important element of improving the quality infrastructure. Metrological activities, in addition to ensuring the accuracy of measurements in sectors and industries, ensure efficiency, resource efficiency and competitiveness in industry. It is important to conduct research in this area. Based on this, practical recommendations for the development of metrological activities have been developed.

**Keywords:** metrology, metrological activities, product quality, metrological requirements, measurements, measuring instruments, standards.

**Абстрактный:** В данной статье рассматривается развитие метрологической деятельности в контексте глобального экономического развития как важный элемент повышения качества инфраструктуры. Метрологическая деятельность, помимо обеспечения точности измерений в отраслях и секторах экономики, гарантирует эффективность, ресурсоэффективность и конкурентоспособность промышленности. Важно проводить исследования в этой области. На основе этого разработаны практические рекомендации по развитию метрологической деятельности.

**Ключевые слова:** метрология, метрологическая деятельность, качество продукции, метрологические требования, измерения, измерительные приборы, стандарты.

### Kirish (Введение/Introduction).

Shiddatli raqobat muhiti shakllanishi asosida sanoat korxonalarining sifatli mahsulot ishlab chiqarishga bo'lgan harakatlarini yanada kuchaytirdi. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni metrologiya talablari asosida ishlab chiqarishga bo'lgan yuksak mas'uliyatni o'z zimmalariga olishni talab qo'ydi. Metrologiya talablari asosida mahsulot sifatini yaxshilash mexanizmini takomillashtirish va unga ta'sir etuvchi omillar hamda ushbu holatning yuzaga kelish sabablarini o'rganishdan iboratdir.

Sanoat korxonalarida yuqori sifatli mahsulotlar tayyorlash, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va mehnat unumdorligini oshirishni ta'minlashga bo'lgan qiziqish va intilish ancha kuchli bo'lib, ishlab chiqarish tufayli imkon qadar ko'p daromad olish kabi pirovard moliyaviy natijalarga erishilayotganini ta'kidlash joiz. Bularning barchasi zamonaviy iqtisodiyot sharoitida faoliyat yuritayotgan korxonalarining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot hajmining o'sishi bevosita metrologiya talablari asosida sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishga uzviy ravishda bog'liq. Shiddatli raqobat yo'lga chiqqan davlatlarning barchasi ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar aynan ularni doimiy sifatini boshqarish va metrologiya xizmatlariga bo'lgan e'tiborning oshayotganligidan dalolat beradi. Har bir davlat metrologiya talablari asosida mahsulotlar sifatini yaxshilash va ishlab chiqarishni metrologiya talablariga muvofiq bo'lishini ta'minlash aynan mamlakat ishlab chiqarish va eksport salohiyatini o'sishi shubhadan holi emas.

### Adabiyotlar sharhi (Обзор литературы/Literature review)

Ilmiy tadqiqotlari negizida aynan, metrologiya talablari asosida sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishga erishish uchun real sektor korxonalarini faoliyatini tubdan o'rganish, doimiy tarzda mahsulotlar ishlab chiqarishda metrologiya talablari asosida mahsulot sifatini ta'minlash mexanizmini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Metrologiya faoliyatini rivojlantirish borasida tadqiqot olib borgan olimlarning izlanishlarini tadqiq qilish maqsadga muvofiq.

Metrologiya so'zining kelib chiqishi o'tgan asrlar tarixiga borib taqaladi. Shu jihatdan metrologiya atamasiga turli olimlarning qarashlari

turlicha bo'lgan. Xususan, MDH olimlaridan Yu.I. Borisov va boshqalarning fikriga ko'ra, metrologiya(grekcha "metron" – mera, "logos" – ta'lim) o'lchovlar haqidagi fan bo'lib, o'lchovlarning aniqlik uslubi va vositalarini ta'minlashga qaratilgan [1].

MDH olimlari tomonidan berilgan ta'rif ham fanning mohiyatini ochib berishga qaratilgan va ilmiy asoslangan fikrlardan biri sifatida e'tirof etish mumkin. A.A.Goncharyov va V.D.Kopilovlar tomonidan berilgan ta'rifga ham e'tibor beradigan bo'lsak, unda "Metrologiya-o'lchovlar haqidagi fan bo'lib, yagonalikni ta'minlaydi, o'lchovlarning aniqlik uslubi vositalarini ta'minlab beradi" deb ta'kidlagan. Darhaqiqat, ushbu berilgan ta'rif ham yuqorida keltirilgan ta'rifni takrorlagan holda fanda o'lchashlar haqidagi ma'noni anglatadi [2].

Iqtisodchi olimlardan I.M.Lifis tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra, "Metrologiya-faoliyat turlari va bilimlar sohasi bo'lib, o'lchovlar bilan bog'liqdir. Metrologiya ob'ektlariga: yagonalik, o'lchovlar vositasi, etalonlar, o'lchovlarni bajarish uslublari kiradi" [3].

Olimning keltirgan fikriga tayangan holda shuni aytish joizki, metrologiya faoliyati aynan bir ob'ektga emas, balki turli sohalarning turli ob'ektlaridagi o'lchamlarni tashkil etishda manba bo'lib xizmat qiladi.

Metrologiya ta'rif va yaratilishi, tarixiy shakllanishi asosan MDH olimlaridan G.R.Krilovaning asarida keltirilgan bo'lib, unga ko'ra, metrologiya qadimgi Gresiya va Rimda vujudga kelgan deb ta'kidlab o'tilgan [4].

### Tadqiqot metodologiyasi (Методы/Methods)

Ushbu tadqiqot ishida nazariy-uslubiy jihatdan tadqiqotlar olib borish, mantiqiy fikrlash, solishtirma tahlil usullaridan foydalanilgan. Shuningdek, metrologik faoliyatni rivojlantirishning nazariy-uslubiy jihatlarini takomillashtirish borasida nazariy yondashuvlar ilmiy jihatdan asoslangan.

### Tahlil va natijalar muhokamasi (Анализ и результаты/Analysis and results)


O'zbekiston Respublikasining korxonalarini, tashkilotlari, davlat boshqaruv organlari, yuridik shaxslar birlashmalari metrologiya sohasidagi davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati tatbiq etiladigan doiradan tashqaridagi normalar va qoidalarni belgilaydigan,

o'lchovlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlashga oid, "Texnik jihatdan tartibga solish" agentligi tomonidan tasdiqlangan normativ xujjatlarni aniqlash tiradigan va ularga zid bo'lmagan normativ xujjatlarni o'z vakolatlar doirasida ishlab chiqishlari hamda tasdiqlashlari mumkin.

Metrologiya darajasiga qarab, xalqaro, mintaqaviy davlatlararo, miliy va korxonada miqyosida faoliyat ko'rsatadi. Davlat metrologiya talablari asosida mahsulotni ishlab chiqarish va uni ishlab chiqarishga qo'yish bosqichida yangi mahsulotlarning yuqori sifatli turlarini yaratish va o'zlashtirishni tezlashtirishga, ishlab chiqaruvchi, tayyorlovchi va iste'molchi oralaridagi munosabatlarni yashirishga yo'naltirilgan [5].

Texnika jihatidan ilg'or bo'lgan ko'pgina mamlakatlarda metrologiya masalalariga qiziqish o'sib borayotganligi qayd etilmoqda, uning asosi bo'lgan standartlashtirishga ham katta e'tibor berilmoqda [6].

Metrologiya ishlari bilan birga amaliyotda standartlashtirish ishlari ham birga tashkil etilib, aynan texnika taraqqiyotida va ishlab chiqarishda eng ratsionalini joriy qilish mahsulot sifatini yaxshilash, mehnat xarajatlarini va moddiy resurslar sarfini kamaytirishning ta'sirchan vositalardan biri sifatida ko'rilmogda (1-rasm).



1-rasm. Metrologik faoliyatning asosiy yo'nalishlari

O'zbekistonda standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya bo'yicha agentligining vazifalari belgilangan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1. O'zbekiston Respublikasi hududida barcha jismoniy shaxslar va mulk shaklidan qat'iy nazar yuridik shaxslarga O'zbekiston Respublikasining Standartlashtirish to'g'risida», «Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida», «Metrologiya to'g'risida», «Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi to'g'risida» gi qonunlar hamda standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya sohasidagi boshqa huquqiy va me'yoriy aktlarga amal qilinishi ustidan nazoratni ta'minlash;

2. Olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari asosida standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirish;

3. Xalqaro standartlar bo'yicha (ISO) yagona ma'lumotlar bazasini yaratish;

4. Majburiy sertifikatlashtirishga ko'rsatilgan mahsulot va xizmatlarning yangi ro'yxatini belgilangan tartibda tuzish va tasdiqlash. Bu ro'yxatni har yili yangi ishlab chiqarilayotgan mahsulot va xizmatlarni e'tiborga olgan holda va tadbiq etilayotgan yangi texnologiyalar va materilarni e'tiborga olgan holda yangilab berish;

5. Mahsulot va xizmatlarni sertifikatsiyalashtirishning yangi tartibini ishlab chiqarish va ularning ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish;

6. Zamonaviy Davlat standartlari va etalonlarini ishlab chiqish va ularning xalqaro tizimga uyg'unligini ta'minlash;

7. Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish va sinovlarni o'tkazishning zamonaviy tizimini tashkil etish [7].

Sanoat korxonalarida mahsulot sifatiga ta'sir etuvchi omillarni to'rt toifaga bo'lish mumkin, ya'ni: texnikaviy, tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy omillardan iborat va ularning tavsiflari quyidagilar:

➤ Texnikaviy omillarga - uskunalarning jihozlanishi, asboblarning hamda nazorat vositalarining, texnikaviy hujjatlarning holati, dastlabki materiallar, yarimfabrikatlarning sifati va shunga o'xshashlar kiradi.

➤ Tashkiliy omillarga - rejalik, bir maromda ishlash, texnikaviy xizmat va uskunalarini ta'mirlash; materiallar, komplektlanuvchi buyumlar, jihozlanishi, asboblarni texnikaviy hujjatlar va nazorat vositalari bilan ta'minlanganligi, ishlab chiqarish madaniyati, mehnatni ilmiy asosda tashkil etish, ovqatlanish va ish vaqtida dam olishni tashkil etish va boshqalar kiradi.

➤ Iqtisodiy omillarga - mehnatga pul to'lash shakllari, oylik maoshning miqdori, yuqori sifatli mahsulotni va ishni moddiy rag'batlantirish, mahsulotning yaroqsizligi uchun oylik maoshidan ushlab qolish; uning sifat darajasi; tannarxi; mahsulotning bahosi va shunga o'xshashlar kiradi.

➤ Ijtimoiy omillarga - kadrlarni tanlash, joy-joyiga quyish; malaka oshirishni tashkil qilish, ilmiy-texnikaviy ijodni, ijodkorlik va ixtirochilikni tashkil etish, turmush sharoitlari, o'zaro munosabatlar, jamoadagi psixologik iqlim va tarbiyaviy ishlar kiradi.

Shiddatli raqobat muhiti sharoitida ishlab chiqarish korxonalarida oldida turgan eng asosiy vazifa-raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishdir. Shuning uchun ham mahsulot va xizmatlar sifatini yaxshilash bugungi kunning muhim masalalaridan hisoblanadi. Mahsulot va xizmatlar sifatini yaxshilash strategik muammo bo'lib, mamlakatimiz iqtisodiyotining stabilshuvi bu muammolarning hal etishiga bog'liqdir. Sifatni yaxshilash jarayoni mahsulotni sotish yoki xizmatlar ko'rsatishda faqatgina ko'proq foyda olish uchungina emas, balki jamiyat uchun, uning ravnaqi uchun ham zarurdir [9].

#### Xulosa va takliflar (Заключение/Conclusion)

O'zbekistonda metrologiya talablari asosida sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishga katta ahamiyat berilmoqda. Metrologiya talablari asosida yaratilayotgan sifatli mahsulotlar nisbati doimiy tarzda nazorat qilib borilishi zaruriy masalalardan biri hisoblanadi.

Xulosa o'rinda aytish joizki, sanoat korxonalarida metrologiya talablari asosida mahsulotlarning sifatini yaxshilashda mexanizmini joriy qilish, bu sohani takomillashtirish uchun quyidagi takliflarni amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiqdir:

- Birinchidan, metrologiyani o'rganish va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifatini yaxshilashda amaldagi metrologik me'yor va tartib-qoidalarga mos bo'lishini nazorat qilish;

- Ikkinchidan, korxonalarda metrologiyani qo'llash orqali ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tarkibiga qo'shiladigan xom ashyosini metrologik tartibga mos holatda qo'shish ishlarini, o'lchash va tekshirishni tashkil etish va nazoratni ta'minlash;

- Uchinchidan, korxonalarda metrologiya talablari asosida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifatini yaxshilash uchun tayyorlash, xarid qilish, qayta ishlash, yetkazib berish, saqlash, tashish va realizatsiya qilish bilan bog'liq faoliyatni rivojlantirishga doimo e'tibor berish;

- To'rtinchidan, rivojlangan davlatlar kabi metrologiyani joriy qilish orqali mahsulot sifatini yaxshilashda korxonalarda sifat to'garaklari faoliyatini tashkil qilish;

- Beshinchidan, xalqaro metrologiyani joriy qilish talablarini o'rganish va bu borada joylarda tushuntirish ishlarini tashkil qilish.

#### Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/References):

- Борисов Ю.И., Сигов А.С., Нефидов В.И., Битюков В.К., Белик Ю.Д., Верб В.С., Метрология, стандартизация и сертификация: Учебник.- М.:Инфра-М,2005.-336 стр.
- Гончарёв А.А., Копилов В.Д. Метрология, стандартизация и сертификация:-Учебное пособие.-3 е изд., М.:Издательское центр. Академия.2006.-240 стр.
- Лифиц И.М. Стандартизация, метрология и сертификация:-Учебник.-6 е изд., М.:Юрайт-Издат, 2006.-350 стр.
- Крилова Г.Д. Основы стандартизации, сертификации, метрологии:-Учебник.-3 е изд., М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2006.-671 стр.
- Кантор Е.Л. и др. Экономика предприятия. – СПб.: Питер, 2009. – 224 с.
- Дресвянников В.А. Управление знаниями организации. Учеб. пособ. – М.: КНОРУС, 2010. – 344 с.
- Магомедов Ш.Ш, Беспалова Г.Е. Управление качеством продукции. Учебник. – М.: «Дашков и Ко», 2010. – 336 стр.
- Мазур И.И., Шапиро В.Д. Управление качеством. Москва. 2008, 400 стр.